



SHARQ MA'RIFIY ADABIYOTINING MOHIYATI

Eshnazar Jabborov

DTPI dotsenti f.f.d (PhD)

eshnazarjabborov@gmail.com +99894 2057818

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17377946>

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyoning ikki qutbida Sharq va G'arb xalqlarining hayotidagi madaniy-ma'rifiy aloqalarining ta'siri hamda bu ta'sirning dastlabki iste'dod sohiblarining erishgan yuksak ilmiy qarashlari, tadqiqotlari, ixtirolari haqida fikr yuritilgan bo'lib dunyoning ikkiga - "Nasorlar Ovrovasi" va "Musurmonlar Sharqi"ga bo'linishi esa har ikkala taraf madaniyatiga juda kuchli ta'siri, Sharq, xususan Markaziy Osiyo X-XIV asrlarda kuchli madaniy yuksalishni boshdan kechirib, keyinchalik o'rnini G'arbgga bo'shatib berrishi, G'arb esa, Sharqning ilmiy muvaffaqiyatlarini o'zlashtirib, Uyg'onish davriga qadam qo'yishi, umuman, Ovrupo Sharq ilm-fanini, xususan, O'rta Osiyo mutafakkurlarining nazariy ta'lumotini nihoyatda qadrlab, sinchiklab o'rganib va shu tariqa ma'rifiylashib borishi ma'riyat-parvarlik g'oyalariga limmo-lim to'lgan dunyo xalqlarining muqaddas kitoblari bo'lgan: Buddha ta'limotlarida Tavrot, Injil, Qur'oni Sharif oyati, kalimalari har bir insonni "yo'lchi yulduz", qalb go'zalligi, tavakkur javohiri, hayot ma'zmoni sanalishi, milodgacha bo'lgan Sharqda ma'rifiy qarashlarning to'laqonli egasi Zardusht, G'arbda Demokrit, Sokrat, Platon, Aristotel kabi faylasuflar bo'lganligi, miloddan keyin esa dunyo xalqlari ma'rifiy qarashlarini tom ma'noda genial allomalari Sharqda Kon-futsiy, Kaykovus, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Jaloliddin Rumiy, Sa'diy Hofiz Sheroziylar, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi daholari fanning ulkan ahamiyatini e'tirof etib keng targ'ib etishlari, Sharq ma'rifiy adabiyaotining bu boradagi olamshumil mohiyati davr bosqichlarida, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy jabhalarda jahon xalqlari tammaddunidagi o'rni tahliliga torilgan.

Kalit so'zlar: Sharq, G'arb, madaniy fenomen, ma'rifiy adabiyot, ma'rifatparvarlik va ma'rifatchilik, Zardusht, Konfutsiy, Qur'on va hadis.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние культурных и образовательных контактов между народами Востока и Запада на жизнь народов двух полюсов мира, а также высокие научные взгляды, исследования и изобретения, достигнутые первыми талантами этого влияния. Разделение мира на две части – «христианскую Европу» и «мусульманский Восток» – оказало сильнейшее влияние на культуру обеих сторон. Восток, особенно Центральная Азия, пережил мощный культурный подъём в X–XIV веках, а затем уступил место Западу, в то время как Запад, освоив научные достижения Востока, вступил в эпоху Возрождения. В целом, Европа высоко ценила и внимательно изучала теоретические знания восточных мыслителей, в частности, и таким образом стала просвещённой. Священные книги народов мира были полны идей нравственности: Будда Учение Торы, Библия, Коран Шариф, слова которого считаются «путеводной звездой» для каждого человека, красота души, драгоценность веры, смысл жизни, тот факт, что на Востоке до 1000-х годов были такие философы, как Заратустра, который был полноправным обладателем просветленных взглядов, на Западе были такие философы, как Демокрит, Сократ, Платон и Аристотель, а после 1000-х годов просветленные взгляды народов мира были

буквально переданы гениальными учеными Востока, такими как Конфуций, Кайковус, Абу Наср Фаруби, Абу Райхан Беруни, Ибн Сина, Хорезм, Юсуф Хос Хаджиб, Джалалуддин Руми, Саади Хафиз Шираз, Мирзо Улугбек и Алишер Навои, признававший и широко пропагандировавший огромное значение науки, отметил, что универсальная сущность восточной просветительской литературы в этом отношении заключается в том, что она получила широкое распространение на разных этапах эпохи, в социально-экономической, политической и религиозной сферах, в развитии народов мира.

Ключевые слова: Восток, Запад, культурный феномен, просветительская литература, просвещение и просвещение, Зороастр, Конфуций, Коран и хадисы.

Abstract: This article discusses the impact of cultural and educational contacts between the peoples of the East and the West on the lives of the peoples of the two poles of the world, as well as the high scientific views, research, and inventions achieved by the first talents of this influence. The division of the world into two - "Christian Europe" and "Muslim East" - had a very strong impact on the culture of both sides. The East, especially Central Asia, experienced a strong cultural upsurge in the 10th-14th centuries, and later gave way to the West, while the West, having mastered the scientific achievements of the East, entered the Renaissance. In general, Europe greatly appreciated and carefully studied the theoretical knowledge of Eastern thinkers, in particular, and thus became enlightened. The sacred books of the peoples of the world were full of ideas of morality: Buddha The teachings of the Torah, the Bible, the Quran Sharif, whose words are considered to be a "guiding star" for every person, the beauty of the soul, the jewel of faith, the meaning of life, the fact that in the East before the 1000s, there were philosophers such as Zoroaster, who was a full-fledged owner of enlightened views, in the West there were philosophers such as Democritus, Socrates, Plato, and Aristotle, and after the 1000s, the enlightened views of the peoples of the world were literally conveyed by the genius scholars of the East, such as Confucius, Kaykovus, Abu Nasr Faroubi, Abu Rayhan Beruni, Ibn Sina, Khorezm, Yusuf Khos Hajib, Jalaluddin Rumi, Sa'di Hafiz Shiraz, Mirzo Ulugbek, and Alisher Navoi, who recognized and widely promoted the great importance of science, the universal essence of the Eastern enlightened literature in this regard is that it has been widely disseminated in the stages of the era, in the socio-economic, political, and religious fields, in the development of the peoples of the world. analyzed.

Keywords: East, West, cultural phenomenon, enlightenment literature, enlightenment and enlightenment, Zoroaster, Confucius, Quran and Hadith.

Insoniyat shunday yuksalish bosqichlarini boshidan kechirganki, ular turli ma'rifiy madaniyatlarning o'zaro hamkorligi natijasida vujudga kelgan. Dunyoning ikkiga - „Nasarolar Ovropasi“ va „Musulmonlar Sharqi“ ga bo'linishi esa har ikkala taraf madaniyatiga juda kuchli ta'sir ko'rsatdi. Taniqli ingliz adibi Kipling bu ikki madaniyat o'rtasidagi tafovutni bo'rttirib, ular „necha asr o'tsa ham chatishib ketishi mahol“ degan edi. Lekin bu xulosani, ne baxtki, tarix inkor etdi. Shu bilan birga, mazkur ikki fenomenning o'ziga xos jihatlari tarixiy taraqqiyot jarayonida yaqqol namoyon bo'ldi.

Sharq, xususan, Markaziy Osiyo X-XIV asrlarda kuchli madaniy yuksalishni boshidan kechirib, keyinchalik o'rnini G'arbga bo'shatib berdi. G'arb esa, Sharqning ilmiy

muvaffaqiyatlarini o'zlashtirib, Uyg'onish davriga qadam qo'ydi. G'arbda musulmonlardan xavfsirash, qo'rqish o'rniga zavqlanish, tasannolar aytish kayfiyati shakllandi. Aynan ana shunday kayfiyat natijasi o'laroq, Gyote o'zini „Sheroz bulbuli – Xoja Hofizning asiri” deb atagan edi. U Hofiz ijodi timsolida Sharq she'riyatini e'zozlagan, hatto, „G'arb va Sharq devoni” she'rlar turkumini yaratgan. Undan avval Dante „Ilohiy komediya” asarida insoniyat daholari qatorida Ibn Sino nomini tilga olib o'tgan.

Umuman, Ovrupo Sharq ilm-fanini, xususan, O'rta Osiyo mutafakkirlarining nazariy ta'limotini nihoyatda qadrlab, sinchiklab o'rgangan va shu tariqa ma'rifiylashib borgan. Amerikalik islomshunos Frans Rouzentaning fikricha, G'arb va Sharq bahramand bo'lgan bilim manbai yagona bo'lib, aslida ular bir daraxtning turli shoxlaridir; ular o'rtasida ko'zga tashlanuvchi farqlar esa ayni bir xil rangning to'q yoki och tasvirlanishidan iborat.

Biroq shu qadar yuksak tamaddunlarni boshidan kechirgan mintaqalar XIX asrga kelib nega Ovrupo bilan qiyoslab bo'lmaydigan ahvolga tushib qoldi? Ma'lumki, Uyg'onish davri gumanizm iroda erkinligiga yo'l ochdi va inson aql-zakovatiga ishonch uyg'otdi, shu bilan birga, odamzodning o'ziga behad bino qo'yganini ham ko'rsatdi.

Ma'rifatchilik atamasiga qomusiy kitoblarimizda „madaniyat va ma'naviyat sohasidagi oqim” – deb ta'rif berishgan.¹ Haqiqatdan ham uning negizini fan, bilim imkoniyatlarida katta ishonchni tashkil qiladi. Ma'rifatchilar bilimlar yordamida ijtimoiy hayotdagi nomutanosibliklar va kamchiliklarni bartaraf qilish mumkinligiga ishonganlar. Shu nuqtai nazardan ma'rifatchilikni mafkuraviy, ijtimoiy oqim deyish mumkin. Ilm-fanni egallash va tag'rib qilish qadimiy zamonlardan boshlangan bo'lsa-da, dastlab Sharqda, keyin esa, G'arbda o'zining go'zal yoqimli ta'siriga ega bo'ldi. Ma'rifatparvarlik g'oyalariga limmo-lim to'lgan dunyo xalqlarining muqaddas kitoblari bo'lgan, Budda ta'limotlarida, Tavrot, Injil, Qur'on Sharif oyati kalimalari har bir insonni „yo'lchi yulduzi”, qalb go'zalligi, tafakkur javohiri, hayot mazmuni sanaladi.

Darhaqiqat, milodgacha bo'lgan Sharqda ma'rifiy qarashlarning to'laqonli egasi Zardusht, G'arbda Demokrit, Sokrat, Platon, Aristotel kabi faylasuflar edi. Miloddan keyingi dunyo xalqlari ma'rifiy qarashlarini tom ma'nodagi genial allomalari Sharqda Konfutsiy, Kaykovus, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Jaloliddin Rumiy, Sa'diy va Hofiz She'roziylar, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi daholari fanning ulkan ahamiyatini e'tirof etib, keng tag'rib qilganlar. Ularning ixtirolari, ilmiy qarashlarining ma'rifiy ahamiyatini mohiyati shundaki butun dunyo ilm-u fani shunga tayanadi.

G'arbda ma'rifiy qarashlar birdaniga ma'rifatchilik („просвещение”) deb to'laqonli atama bilan atalib, sensatsiya ko'rinishida vaqtli matbuotda, adabiyotlarda, ilmiy tadqiqot ishlarida targ'ib-tashviq qilib yuborilgan. To'g'ri, yaxshi bir adibimiz aytganidek „Jamiyat ma'rifatsiz yashay olmaydi” (M.Muhammad Do'st). Lekinda ma'rifat birdaniga ma'rifatchilik kasb eta olmaydi. Sharq ma'rifiy adabiyotining mohiyati ham shundaki, u juda kamtarin, zahmatkashdir.

Sharq ma'rifiy adabiyoti juda mashaqqatli davrlarni, yo'llarni bosib o'tdi. U XX asrning 20-yillarigacha ma'rifatparvarlik (просвительство) kasb etib keldi. Turkistonda bu hodisa

xalqparvar jadid Ishoqxon Ibratdan boshlab, oxir-oqibatda ma'rifatchilik ko'rinishiga ega bo'ldi. Bizningcha, ma'rifatparvarlik qachonki amaliy harakatga ko'chsa; vatani, xalqini ma'naviyatli, madaniyatli, ma'rifatli qilib, og'ir hayot so'qmoqlariga bardosh berib, hayotini, butun quvvatini moddiy boyligini millati va yurtining farovon kelajagi, baxt-u saodati yo'lga sarflasa, bu ma'rifatchilik bo'ladi (ta'kid bizniki – E.J.)

Ma'rifiy qarashlar G'arbda ham, Sharqda ham bir necha umumiy xususiyatga ega bo'lib, diniy aqidaparastlikka qarshi qaratilgan va turlicha davom etgan. G'arb ma'rifiy qarashlari diniy aqidaparastlikni tanqid qilish bilan cheklanmay, umuman dinga qarshi kurash olib bordilar. G'arb ma'rifiy adabiyotlari o'z o'rnida dahriylik xususiyatini kasb etdi, bu uning asosiy belgilaridan biriga aylandi hamda bor bo'yiga „tabiiy odam“ konsepsiyasini ilgari surildi. {1.541.}

Sharq ma'rifiy adabiyoti umuman olganda dinga qarshi emas, balki diniy aqidaparastlikka qarshi bo'ldi. Lekin bu kurash dahriylik mavqeidan emas, mo'tadil dindorlik mavqeidan olib borildi. Ular ko'pi azaldan dindor, taqvodor ba'zilar esa diniy ulamo (M.Behbudiy) bo'lganlar. Sharq, xususan, O'rta Osiyo ma'rifatparvarlari (Konfutsiy, Yusuf Xos Hojib, A.Navoiy...) keskin siyosiy talablarni olg'a surishmadi. Ular jamiyatni savodli qilib, davlatni adolatli shoh idora qilishi; shu bilan farovon turmushga erishmoqchi bo'ldilar. Bularning ma'rifiy asarlarida esa „komil inson“ konsepsiyasi ilgari surildi.

G'arb ma'rifatparvarlari ko'proq tabiiy fanlarga murojaat qilishdi. Sharqda faqat aniq va tabiiy fanlarga emas, umuman ilm-fanga, sog'lom fikrga, mantiqqa murojaat qilishdi. Ular xalqni ro'shnolikka chiqarishning asosiy yo'li – uni savodli qilish ekanligini ta'kidladilar. Shu bilan birga, ular diniy aqidaparastlikka qarshi kurashda faqat dunyoviy fanlardan emas, Qur'on oyatlari va payg'ambar hadislaridan ham foydalanishdi, zero ularning ko'pchiligi muayyan diniy bilimlarni ham egallagan edilar.

Sharq ma'rifiy adabiyoti mohiyatining yana bir ustun tomoni shundaki, uning vakillari qabilaviy dinlarni ham, islom dini shariati qonunlarini ham chuqur bilishgan, idrok etishgan. Shu bois, inson tarbiyasi talablari to'liq o'z aksini topgan, bundan chetlashish, uzoqlashish, hech qanday asosi (sababi) topilmagan.

Globalashuv kechayotgan XXI asr xalqlarining ma'naviy-madaniy hayotida Sharq xalqlari ma'rifiy adabiyotini insonparvarlik, ezgulik, nozik tarbiyaga asoslangan chuqur hurmat-ehtiroimli mohiyati o'zining yuksak irfoniy qudratiga ega bo'lib kelmoqda. Sharq ma'rifiy adabiyotini butun dunyo xalqlari hayotiga ijtimoiy-siyosiy ta'siri davr bo'hronlarida o'zligini saqlab qoldi.

Mintaqamizning arablar tomonidan bosib olinishi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hayotda dastlab bir qancha qiyinchiliklarga olib kelgan bo'lsa-da, ko'p fursat o'tmay, G'arbda Ispaniyadan Sharqqa to Xitoy chegaralarigacha bo'lgan mintaqani o'z ichiga olgan buyuk davlat, xalifalikning bir qismi bo'lganligining ijobiy tomonlari - mayda davlatlar o'rtasidagi nizolarning bartaraf etilishi, umumjahon savdo aloqasida ishtirok etish, umumiy pul aloqasi, islom dunyosidagi xalqlar bilan teng huquqli sifatida iqtisodiy, madaniy aloqada bo'lish, islom tabiatiga xos ijobiy xususiyatlarni o'zlashtirish kabilar iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyotning yuqori darajaga ko'tarilishiga olib keladi.

Mintaqamiz Somoniylar davrida siyosiy mustaqillikka erishgach, madaniyat, ilm-fan, falsafa, adabiyot, san'at misli ko'rilmagan darajaga ko'tarildi. Eronshunos olim I.M.

Doyakonov „ Eron madaniyatining asosi Sharqda yaratildi. Buxoro (X asr) o'rta asr madaniyatining dastlabki markazi ekanligi, u yerda yaratilgan adabiyot hozirgi zamon fors adabiy tili asosini tashkil etishini eslashning o'zi fikrimizning isbotidir,“ – deydi. (2.6.)

Fransuz adabiyotshunosi va shoiri Anri Delyui esa „O'rta Osiyoning she'riy an'analari arab sharqi, keyinchalik arab-andaluz va galisiya-partugal she'riyati orqali G'arbiy Ovrupo sivilizatsiyasining beshigi bo'lgan Provansga keldi, uni trubadurlar rivoyatlantirdi, boyitdi va keyinchalik g'azal Kataloniya, Sitsiliya, Burgundiya va undan keyin Germaniya, Bavariya, Avstriyada minezanglar ijodida namoyon bo'ldi... Italiyadagi „ Yangi yoqimli, uslub“ g'azal asosida shakllandi. Dante she'riyatining Ovrupo she'riyatiga ta'siri ko'p asrlar davom etgan buyuk Goskan-provansal she'riyatini aytmysizmi?“, – deydi. (3) Haqiqatdan, Ovrupo va umuman jahon adabiyoti rivoji qonuniyati va yo'nalishini, Sharq ma'rifiy adabiyoti va uning ta'sirini aniqlamay turib, obyektiv baholab va to'g'ri tushunib bo'lmaydi.

Movarounnahrimizda faqat badiiy adabiyot shakllanibgina qolmay, ilm-fanning turli sohalarini shunchalik rivojlandiki, yaqin vaqtlargacha xalifalik davridagi „arab fani“ sifatida olamga mashhur bo'ldi. Mintaqamizdan chiqqan buyuk olimlar Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Habash al-Hosib, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Hakim At-Termiziy kabilar asos solgan tabiiy fanlar va ijtimoiy falsafiy tafakkur boshqa tarixiy sharoitda, Ovrupo Uyg'onish davri yaratgan ma'naviy yutuqlar bilan boyigan holda, kapitalistik ishlab chiqarish aloqalari joriy etila boshlagan davrda Spinoza va fransuz materialistlari ta'limoti bilan boyitilib, mumtoz (klassik) falsafaning shakllanishiga asos bo'ldi.

Islom mamlakatlari xalqlari madaniyati shunchalik ravnaq topishining boisi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sabablar bo'lsa, ikkinchi tomondan islom ta'limotining o'zi bo'ldi. Bu ta'limotda din aqidalari va bilim, ilm-fan shunchalik chambarchas bog'langan ediki, bunday holatni hech qachon va hech qaysi diniy ta'limotda uchratmaymiz. Amerikalik arabshunos, islomshunos olim F. Rouzental „Bilim tantanasi“ risolasida o'rta asrda „ilm“ so'zining ma'nosi va ahamiyati haqida shunday deydi: „ ...ilm islomda ustunlik qiluvchi konsepsiyalarning biridir. Bu holat islom sivilizatsiyasini ham shakl, ham mazmun jihatidan boshqalardan ajratib turadi. Haqiqatdan, musulmon sivilizatsiyasining turli sohalarini „ilm“ aniqlab beradi“ (4.21.)

Darhaqiqat, hech qaysi dinda bilim olish dindorlardan astoydil talab qilinmaydi. Islom hadislarida „Har bir muslim va muslima tug'ilishidan to boshi go'rga kirguncha bilim olishga intilishi kerak“, yoki „Garchi Xitoyda bo'lsang ham ilm izla“ deb islomga e'tiqod qo'yan bandlarga qat'iy ko'rsatma beriladi. To'g'ri, „ilm“ deganda dunyoviy bilimlar emas, balki diniy aqidalar, Qur'on va hadislar deb tushunmoq kerak, deb rasmiy talqin berilgan.

Ammo bu masalada o'z vaqtida ko'plab bahslar bo'lib, „ilm“ni keng ma'noda tushunuvchilar ko'pchilikni tashkil etgan. Qanday bo'lmasin, „ilm“ olishga astoydil undash o'z samarasini berdi, o'rta asr musulmon sivilizatsiyasini ilm-fan rivoji masalasida o'ta mahsuldor qildi. Natijada islom insoniyat tarixida eng mustahkam ma'rifiy hissa qo'shdi, ilm rivojining o'sha davr uchun oliy bo'lgan cho'qqiga ko'tarilishini ta'minladi. Bu taraqqiyot faqat Sharq xalqlari manfaatigagina xizmat qilmay, umummadaniyat, sivilizatsiya rivojiga xizmat qildi. O'tmishning buyuk mutafakkirlari hech qachon tor ramkadagi millatparast bo'lmaganlar, ular insoniyat asosan Hazrati Insonga xizmat qilganlar. Haqiqatdan ham amalda shunday bo'ldi. Sharq olimlari yaratgan ma'rifiy ilm-fan, falsafa Ovrupoga o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu ta'limotlar

boshqa iqtisodiy, ijtimoiy sharoitda yanada rivoj topdi va mohiyatan umuminsoniy sivilizatsiyaga xizmat qildi.

Sharqning Ovrupoga ta'siri bu mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyoti ana shu ta'sirni qabul qilishni taqozo qildi. Ovrupo Sharq ilm-fani, falsafasi va ma'rifiy adabiyotida Ovrupodagiga nisbatan ratsionalistik realistik va umuman olganda, diniy hamda feodalizmga xos aqidalardan xoli bo'lgan. Demokratik ruhdagi madaniyat ekanini tushunib yetgach, uni o'zlashtirishga kirishdi. Ammo ta'sir faqat ilm-fan, ma'rifiy adabiyotdagina emas, balki jamiyat hayotining turli sohalari, kundalik hayotning ikir-chikirlarigacha borib yetdi.

Bu haqda prof. U.M.Uott shunday deydi: „Islom o'zi erishgan moddiy madaniyat, texnikaviy kashfiyotlar ila G'arbiy Ovrupo bilan faqatgina sheriklashib Ovrupoda ilm-fan va falsafa rivojini rag'batlantiribgina qolmay, Ovruponi o'zi haqida yangicha tasavvurga ega qildi” (5.111.)

O'rta asrlarda mintaqamizda yuksak darajada rivojlangan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy hayot nima uchun shunday inqirozga uchradi? Bu savol ko'plarni qiziqtiradi. Yaqin o'tmishdagi rasmiy istoriografiya „islom dini”, „diniy jaholat”, „diniy fanatizm”, „islom aqidalariga o'ta berilish” deb javob bergan.

Bizningcha, uzoq o'tmishdan buyon Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan qit'alararo karvon yo'li, hozir „ipak yo'li” deb atalgan savdo yo'li faqat savdo-sotiqmi ta'minlab qolmay, xalqlar, mintaqalar o'rtasida ishlab chiqarish, dehqonchilik, uy-joy qurilishi, oilaviy hayot, oziq-ovqat, ilm-fan, adabiyot, san'at, moddiy va ma'naviy hayotning bir mintaqadagi yutuqlarini boshqa mintaqalarga istamay tarqatganlar. Savdo yo'lining markazida joylashgan Movarounnahr uning hamma yutuqlaridan to'liq bahramand bo'lgan. Ipak yo'lidan foydalanuvchilar mintaqadan faqat yo'l (transkoridor) sifatida foydalanmay, bu yerda savdo va madaniyat aloqalar o'rnatganlar. Bu holat yurtimizning boshqa yurtlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy ravnaqini ta'minlagan.

Sulton Sanjar davridan boshlab saljuqiy turklar (turkmanlar) Vizantiya imperiyasi bilan bir necha bor to'qnashib, Kichik Osiyoning janubida Konya va bir nechta kichik shaharlarni ishg'ol qilgan edilar. 1453-yil 29-mayda Mehmet II Vizantiyaning asosiy kuchlari bilan to'qnashuvda imperiya poytaxti Konstantinopolni ishg'ol etadi.

Ushbu voqeaning jahon xalqlari, ayniqsa, mintaqamizda yashagan xalqlarning tarixiy taqdiri uchun ahamiyati kata bo'lgan. G'oliblar o'rta yer dengizi bilan Qora dengizni birlashtiruvchi G'arb va Sharq o'rtasidagi savdoni ta'minlovchi dengiz yo'li Bosfordan savdo kemalari yurishini to'xtatadilar. Natijada 20-25 yil mobaynida Ipak yo'lining eng qulay marshruti yopiladi. Bu siyosiy tanglikdan keyin Ovrupo mamlakatlari Hindiston, Xitoy va umuman Sharq mamlakatlariga dengiz yo'llari axtarishga kirishadilar. Natijada favqulodda ravishda yangi qit'a-Amerika kashf etiladi, Vasko da Gama esa 1497-1499-y. Hindistonga okean yo'lini ochadi.

Ovrupo mamlakatlaridagi bu kashfiyotlar kemachilik, texnika, jug'rofiya fanlari, umuman amaliy ilm-fanning keng tarqalishi, tezlikda o'sishiga da'vat etdi. Natijada Ovrupo mamlakatlari ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallik bilan amalga oshirishga kirishadi.

Endilikda yuqoridagi siyosiy xatoning salbiy tomonini tarix ochiq-oydin ko'rsatib berdi. Shu bois yaqinda (2023-yil, may) Xitoy hamda Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligida „

Buyuk Ipak temir yo'l loyihasi" Qora va O'rta yer dengizi bilan bog'laydigan azaliy yo'lni loyihasini tasdiqladilar.

Yuqoridagi fikrimizni davom ettirgan holda Ovrupodan farqli o'laroq Movarounnahr xalqlari taraqqiyotida asta-sekin orqaga ketish ro'y berdi. Jahon savdo yo'li faoliyatining susayishi va to'xtashiga, mintaqada hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo aloqalarining susayishiga va nihoyat, iqtisodiy inqirozga olib keldi. Iqtisodiy qoloqlik o'z navbatida madaniy orqaga qolishga sabab bo'ldi. Natijada antik davrda Yunoniston, Rim, Eronga, O'rta asrlarda Ovrupo va Yaqin Sharqqa o'z ta'sirini o'tkazgan Movarounnahr jug'rofiy jihatdan oraliqda, asosiy qit'alararo dengiz yo'llaridan uzoqda, umuminsoniy aloqalar taraqqiyotidan uzildi. O'z qobig'iga o'ralib, boshqa xalqlardan uzilib qolgan mintaqamiz xalqlari ilm-fan, ayniqsa, amaliyot ilmidan orqada qoldi va keyinchalik nisbatan osonlik bilan Rossiya tomonidan bosib olindi.

Ammo bu orqada qolish umuman madaniyatsizlikka olib kelmadi. Agar G'arbiy Ovrupo fan va texnika rivojining oliy darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, Sharq mamlakatlari xalqlari inson qalbini, ruhiy hayot qonuniyatlarini o'rganishda yuqori darajaga ko'tarildilar. Rus adibi S.V.Stulginskiy: „G'arb-oqil, Sharq-donishmand, G'arb-kenglik, Sharq-teranlik, G'arb-harakat bilan yashagan, Sharq esa orzu-umid bilan. Hayol, umiddan afsonalar tug'iladi, keyinchalik xalq afsonalaridan falsafiy tizimlar shakllanadi. Xalq afsonalari falsafaning manbaidir. Agar G'arbning atoqli odamlari faollar bo'lsalar, Sharqda ular faylasuflardir. Olimlar sharq afsonalarida nafaqat chuqur falsafiy tizimlar, balki hamma falsafiy oqimlar, hind-ovrupo mifologiyasining ibtidosini topdilar. G'arbgga nisbatan bir necha asrlar avval Sharqda yer yuzidagi hamma jonzoatlarning evolyutsiyasi haqidagi ta'limot ishlab chiqilgan edi "(6.5.), deb haqiqatni tan oladi.

So'nggi davrlarda insoniyatning ilg'or vakillari kelajak tamadduni g'arbliklarning amaliyoti, fan, texnika yutuqlari, sharqliklarning o'tkir mushohadasi, g'arbliklarning faolligi, sharqliklarning ma'naviyati, ruhiyatni yaxshi anglay olishi bilan boyitilsa, insoniyat haqiqiy taraqqiyotga, yuksalishga erishuvi mumkin ekanligini anglab yetmoqdalar.

Foydanilgan adabiyotlar:

- 1.Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Т., 2003. – Б.541.
- 2.Дьяконов И.М. Очерк истории древнего Ирана. – М., 1961. – С.6.
- 3.Привалов И. Узбекские газели до Прованса, Богемии / Литературная газета, № 23(5349), 12.06.1991.
- 4.Роузентал Ф. Торжество знания. – С.21.
- 5.Уотт У.М. Влияние Ислама на средневековую Европу. – С. III.
- 6.Стульгинский С.В. Космические легенды Востока. Ростов на Дону. – М., 1972. – С.5.